

Date: 1st June-2026

ATF VA UNING TOBE BOG‘LANISHDAGI O‘RNI

Xusenov Abdurahmon Jamshid-o‘g‘li

Oriental Universiteti lingvistika (arab tili) mutaxassisligi 203-guruh magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilshunosligi nahv (sintaksis) bo‘limining, xususan, tavobe’lar (tobe so‘zlar) turkumining ajralmas qismi bo‘lgan atf hodisasi va uning gap tuzilishidagi o‘rni va xususiyatlari tadqiq qilingan. Maqolada an’anaviy arab tili grammatikasining ikki yirik mavzusi atf al- bayan va atf an-nasaq turlari klassik nahv qonuniyatlari asosida tahlil qilingan. Ibn Molikning “Alfiya” asari qoidalari, shuningdek, Basra va Kufa maktabi vakillarining o‘zaro ilmiy bahslari doirasida atf vositalarining nafaqat grammatik bog‘lanish, balki nozik semantik munosabatlarini shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Tadqiqot jarayonida olingan xulosa va natijalar arab sintaktik qurilishini anglash hamda qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni yanada boyitishda muhim ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: arab tilshunosligi, nahv, sintaksis, atf, atf al-bayan, atf an-nasaq, semantika, grammatika, tobe bog‘lanish, ma’tuf, ma’tuf alayh, Basra, Kufa maktabi.

Аннотация: В данной статье исследуется феномен atf, являющийся неотъемлемой частью синтаксиса арабской лингвистики, в частности, категории тавва (подчинительных слов), а также его роль и особенности в структуре предложения. В статье анализируются две основные темы традиционной арабской грамматики, atf аль-баян и atf ан-насақ, на основе законов классического синтаксиса. Особое внимание уделяется правилам «Альфия» Ибн Малика, а также роли atf в формировании не только грамматических связей, но и тонких семантических отношений в рамках научных дискуссий между представителями Басрийской и Куфийской школ. Полученные в ходе исследования выводы и результаты служат важным научно-теоретическим источником для понимания арабской синтаксической структуры и дальнейшего обогащения сравнительно-типологических исследований.

Ключевые слова: арабская лингвистика, нахв, синтаксис, atf, atf аль-байан, atf ан-насақ, семантика, грамматика, подчинительный союз, маътуф, маътуф алейх, Басрийская школа, Куфийская школа.

Abstract: This article studies the phenomenon of atf, which is an integral part of the nahw (syntax) section of Arabic linguistics, in particular the category of tawwa’ (subordinate words), and its role and features in sentence structure. The article analyzes the two major topics of traditional Arabic grammar, atf al-bayan and atf an-nasaq, based on the laws of classical nahw. The rules of Ibn Malik’s “Alfiya”, as well as the role of atf means in the formation of not only grammatical connections, but also subtle semantic relationships within the framework of scientific debates between representatives of the Basra and Kufa schools, are highlighted. The conclusions and results obtained in the research process serve as an important scientific and theoretical source for understanding the Arabic syntactic structure and further enriching comparative-typological studies.



Date: 1st June-2026

Keywords: Arabic linguistics, nahw, syntax, atf, atf al-bayan, atf an-nasaq, semantics, grammar, subordinate conjunction, ma'tuf, ma'tuf alayh, Basra, Kufa school.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida arab tili kabi tadqiq etilgan til bo'lmisada, arab bo'lmagan xalqlar uchun uning ba'zi jabhalarini o'rganish, tadqiq etish zaruriyati mavjuddir. Mana shunday muammolardan biri arab tilida tobe bog'lanishning turlaridan biri atf bo'lib, ushbu mavzu tadqiq obyekti sanaladi.

Mustaqillikka erishilgach, respublikamizda xorijiy tillarni o'rganish davr taqozosiga aylandi. Ayniqsa, yurtimizda ilm-fan qatorida, dinimizni ham rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilishi natijasida arab tilini ilmiy asosda qiyosiy o'rganish zarurati yuzaga keldi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning takomillashuviga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 19-mayda chiqarilgan PQ 5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ham muhim o'rin tutdi¹.

Tadqiqotning obyekti sifatida arab tilshunosligiga oid klassik manbalar, xususan Ibn Molikning "Alfiya"si tanlab olingan. Mazkur maqolaning asosiy e'tibori arab tilining grammatik tuzilishini, uning qonun-qoidalarini va ichki aloqalarini o'rganishga qaratiladi. Shu bilan birga, tadqiqot obyekti sifatida arab tili grammatikasining sintaktik (gap tuzilishi) qismi ham ko'rib chiqiladi. Chunki aynan sintaksisda atf o'zining asosiy ko'rinishini namoyon etadi.

Tadqiqotning predmetini arab tili grammatikasida atf bog'lanishning turlari, o'ziga xos xususiyatlari, sintaktik tuzilishi va gapdagi o'rnini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotda arab tilidagi atfning o'ziga xos grammatik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Atf tobe bog'lanishining ma'no yaratishdagi o'rni va bosh so'z bilan birgalikda qanday semantik munosabatlarni ifodalashi, tobe so'zning bosh so'zga bog'lanishidan hosil bo'lgan ma'noning tahlili ham tadqiqot predmetiga kiradi. Bog'lanishlarni shakllantirishda va ularning aloqasini o'rnatishda ishlatiladigan grammatik vositalar, ularning o'rni va funksiyalari o'rganiladi.

Tadqiqot obyekti (arab tilshunosligiga oid klassik manbalar) tadqiqot predmetini (atf bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlari) o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Predmet esa obyektidagi muayyan masalani aniqlashtirib, uni ilmiy o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotda arab tili grammatikasining sintaktik tuzilishi (obyekt) doirasida, atf bog'lanishning o'ziga xos sintaktik, semantik, grammatik va matndagi o'rni kabi jihatlari predmet sifatida o'rganiladi. Tadqiqot predmeti tadqiqot obyektining aniq yo'nalishini ko'rsatib, tadqiqot maqsadiga erishish uchun qilinadigan ishlarni belgilab beradi.

Ushbu tadqiqotda arab tili grammatikasida atf bog'lanishning o'ziga xos leksik-semantik jihatlari va xususiyatlarini yoritish, ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uni nazariy

¹ <http://lex.uz/docs/-5426736>



Date: 1st June-2026

va amaliy jihatdan tahlil qilish, tasniflash va tadqiq qilish maqsad qilib belgilangan. Tadqiqot davomida ushbu tobe bog‘lanishning arab tilidagi o‘rni, turlari, grammatik va semantik xususiyatlari, shuningdek, matndagi o‘rni aniqlanadi.

ATF VA UNING TOBE BOG‘LANISHDAGI O‘RNI

Atf arab tilshunosligida gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarib keladigan muhim sintaktik hodisa hisoblanadi. Atf arab tili grammatikasida tavobe‘lar (ergashuvchi so‘zlar) turkumiga kirib, o‘zidan oldingi so‘zning sintaktik shakli (e‘robi) va ma‘nodagi bog‘liqligini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Atf ikki turga bo‘linadi:

1. Atf al-bayon

2. Atf an-nasaq

Atf al-bayon ergashilmish so‘zni sifatga o‘xshab izohlaydigan va uni aniqlashtiradigan tobe(ergashuvchi)dir. Ammo uning sifat va badaldan farqi shundaki, u jomid ism sanaladi va mustaqil so‘z hisoblanmaydi, ya‘ni undan oldin ergashilmish kelishiga ehtiyoj sezadi. Misol :

(idhci masaq nalib imon holla ramU in‘ay ,sfaH ubA) أق سم ب الله أب و د فص عمر

Atf al-bayon sifatga o‘xshash so‘z bo‘lgani tufayli, u ham sifat singari ergashilmish so‘zga quyidagi to‘rt narsada ergashishi lozimdir:

1. E‘robda (raf, nasb, jarr).

2. Ma‘rifa yoki nakiralikda (aniqlik yoki noaniqlikda).

3. Jinsda (muzakkar yoki muannaslikda).

4. Sonda (mufrad, tasniya yoki jamlikda).

Arab tilida barcha atf al-bayon bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar badal ham bo‘la oladi.

“Alfiya” asari muallifi Ibn Molik quyidagi ikki o‘rinda tobe (ergashuvchi) so‘z faqatgina atf al-bayon bo‘ladi degan fikrni bildirganlar:

1. Tobe (ergashuvchi) so‘z mufrad (birlik), ma‘rifa (aniq ism), mu‘rob (kelishiklarda o‘zgaruvchi) bo‘lsa, matbu‘ (ergashilmish) esa munada (undalma) bo‘lib kelsa. Misol:

يا غلام يَغْمُرَا (Ey bola, Ya‘mur!)

2. Tobe (ergashuvchi) so‘z ل artiklidan xoli bo‘lib, matbu‘ (ergashilmish) esa لا bilan kelsa hamda unga لا qo‘shilgan sifat izofa qilinsa. Misol:

أنا الضاربُ الرجلِ زيد (Men o‘sha erkakni, ya‘ni Zaydni uruvchiman)

Bu yerda زيد so‘zi faqatgina atf al-bayon bo‘la oladi, badal o‘rnida bo‘la olmaydi. Zero badal gapda omilni takrorlash niyatiga ko‘ra keltiriladi. Shunga ko‘ra ma‘noda أنا الضاربُ زيد bo‘lishi lozim qilinardi. Ammo bu holat olimlar tomonidan joiz sanalmagan. Chunki لا qo‘shilgan sifat faqat unda لا artikli bo‘lgan ismgaga hamda لا bo‘lgan so‘zga izofa qilingan ismgagina izofa bo‘lib kelishi mumkin. لا so‘zida esa لا yo‘q.

Atf an-nasaq bu tobe (ergashuvchi) va matbu‘ (ergashilmish) so‘zning o‘rtasiga atf (bog‘lovchi) harflari kelishi natijasida yasaladigan tobe so‘zdir.

Atf harflari ikki qismga bo‘linadi:



Date: 1st June-2026

1. Ma'tuf(bog'lanuvchi)ni ma'tuf alayh (bog'lanmish) bilan lafz va hukm jihatidan sherik qiladigan harflar. Ular و, ثَمَّ , أو , حَتَّى , أم , أو harflaridir.

2. Ma'tuf(bog'lanuvchi)ni ma'tuf alayh (bog'lanmish) bilan faqatgina lafz jihatidan sherik qiladigan harflar. Ular لَب , اَل , نَكَل harflaridir.

و Basra maktabi vakillari nazdida mutlaq jamlash uchun ishlatiladi. Misol: جاء خالد (idlek dyaZ av diloX) وزيد د

Ushbu misolda "Xolid va Zayd keldi" deganda, ulaning bir vaqtda, ketma-ket yoki kim birinchi kelgani aniq emas, shunchaki har ikkalasi ham kelgani ifodalanadi. Ularning kelishida tartib ma'nosi tushunilmaydi. Zero و harfi ءافلا singari tartibni ifodalab kelmaydi. Kufa maktabi olimlari fikriga ko'ra esa و harfi tartibni bildirish uchun qo'llanadi. Biroq Kufa maktabi vakillarining ushbu qarashiga raddiya (qarshi fikr) sifatida quyidagi Qur'on oyati keltirilgan:

إِنْ هِيَ إِلَّا حَيَاتُنَا الدُّنْيَا نَمُوتُ وَنَحْيَا وَمَا نَحْنُ بِمَبْعُوثِينَ (Mu'minun surasi 37-oyat)

Ma'nosi: "Shu dunyodagi hayotimizdan boshqa hayot yo'qdir. O'lamiz, tirilamiz va biz qayta tirilguvchi emasmiz."

Ya'ni ushbu oyatda و ni tartib uchun ishlatilgan desak, bu yerda o'lim hayotdan oldin kelishi kerak bo'lib qolardi, vaholanki oyatda dunyo hayoti nazarda tutilgan.

و harfi boshqa bog'lovchilardan o'zining yana bir xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu harf bog'lanmish so'z(ma'tuf alayh)ni yolg'iz o'zini keltirish mantiqan imkonsiz bo'lgan gaplarda ham ishlatiladi. Misollar: اخ تصم خالد وزيد د

(Xolid va Zayd tortishib qolishdi)

ob kirehs dyaZ av diloX) ت لishdi) شارك خالد وزيد د

Ushbu yuqoridagi misollarda deb ma'tuf(bog'lanmish)ni اصطفت هذا و ابني (Bu kishi va mening o'g'lim bir qatorga turishdi) o'zinigina keltirib bo'lmaydi. Chunki jumalardagi fe'llar ish harakatning ikki tomon o'rtasida bajarilganiga ishora qiladi. Shuningdek, ushbu o'rinlarda ya'ni sheriklikni talab qiladigan fe'llar ishlatilganda, bog'lovchi sifatida boshqa harflar ishlatilmaydi. دلخ مصتخا ritlek bed د زيد د ilgan jumla esa xato hisoblanadi.

ثم ma'tuf(bog'lanuvchi)ning ma'tuf alayh(bog'lanmish)dan ajralgan holida kechikishi ma'nosida qo'llanadi. Misollar:

وَاللَّهُ خَلَقَكُمْ مِنْ ثَرَابٍ ثُمَّ مِنْ نُطْفَةٍ (Fatir surasi 11-oyat)

Ma'nosi: "Alloh sizlarni tuproqdan, so'ngra nutfadan yaratdi." جاء الدفاء os ,idlek diloX) خالد ثم زيد د (ng biroz vaqt o'tib Zayd keldi)

ma'tuf(bog'lanuvchi)ning ma'tuf alayh(bog'lanmish)dan unga ulangan holida kechikishi ma'nosini anglatish uchun foydalaniladi. Ya'ni u tartibga dalolat qiladi va unda muhlat ma'nosi bo'ladi. Misollar:

الَّذِي خَلَقَ فَسَوَّى (A'la surasi 2-oyat)

"(U) yaratgan va mutanosib qilgan Zotdir."

keldi, ketidan darhol Zayd keldi)

o gninifrah ziga xos جاء خالد ف زيد د diloX) (U yaratgan va mutanosib qilgan Zotdir.) xususiyati shundaki, u sila bo'lishga yaramaydigan ya'ni zamiri yo'q gapni sila bo'la oladigan, zamiri bor gapga bog'laydi. Misol:

Date: 1st June-2026

الذي يطير فيغضب زيد اللذباب (Uchib yurib, Zaydning g'azabini keltirayotgan narsa pashshadir)

حتى bog'lanuvchi so'z o'zidan oldingi so'zning bir bo'lagi bo'lib, ortish yoki kamayishda yakuniy nuqta shart qilinadi. Misol:

أم (Hojilar, hatto piyodalarigacha keldi) قدم الحجاج حتى المشاة
ikki xil turi mavjud. Birinchisi muttasila (ulangan) deb ataladi. U tenglik hamzasidan keyin keladi. Ikkinchi turi izrob (avvalgi fikrdan qaytish) uchun ishlatilib, munqati'a (ajralgan) deb nomlanadi.

“م” muttasila. Bu o'rinda “م” dan oldingi va keyingi jumla bir-biriga o'zaro qo'shib, bitta jumla hosil qiladi. Birinchi jumla boshiga hamzai istifhomiya (ʾ) kirishi lozim qilinadi. Chunki hamzai istifhomiya ikkita barobar bo'lgan ism yoki jumlaning faqatgina bittasini aniqlashni talab qiladi. Masalan:

أخالد قرأ هذا الكتاب أم زيد (ʾdyaZ ikoy imidiq'o diloX inbotik uB)

Ushbu misolda kitob o'qilganilgani aniq, lekin kim o'qigani noma'lum bo'lgani uchun hamzai istifhomiya aniqlik kiritilishini talab qilib kelyapti. Birinchi ism hamzaga yaqin tursa, ikkinchisi “م” muttasilaga yaqin turadi. Bu o'rinda “م عن” (ha) yoki “ال” (yo'q) deb javob berib bo'lmaydi. Balki javobni aniq qilib berish lozim bo'ladi.

“م” munqati'a. Bunda “م” dan keyin kelgan jumla undan oldingi jumladan ajratilgan bo'ladi va “م” quyidagi ikki harf ma'nosida anglatib keladi:

“ب” ma'nosida keladi: Bunda izrob, ya'ni yuqoridagi hukmni boshqa hukmga o'zgartirish uchun keladi. Undan keyin yana ishtiboh, ya'ni shak qilib so'rashni ifodalaydigan “أ” keladi. Masalan, **إِنَّهَا لِإِبِلٍ بَلْ أَشَاءُ؟** jumlasida bu yerda **إِنَّهَا لِإِبِلٍ أَمْ شَاءُ؟** ma'nosida kelyapti. Shunda ma'nosi “Ular tuyalarmikin, yo'q, balki qo'ylarmikin?” degani bo'ladi. Ya'ni, yuqoridagi isnod (suyantirish) keyingisiga beriladi.

أو tanlov, ruxsat, shubha, taqsimlash, eshituvchiga chigallikni bayon qilish, fikrdan yuz o'girish ma'nolarida ishlatiladi. Ba'zan esa chalkashishlik xavfi bo'lmaganda و ma'nosida ham qo'llanadi.

ب ل، لا، ل كن idaliq kirehs anigadbor'e nalib z'os ichnikki inz'os ichnirib iralfrah fta hukmda emas.

Inkor (nafiy) dan keyin لكن bilangina atf qilinadi (bog'lanadi). Misol:

عمرا ما ضربت زيدا لكن

لا تضرب زيدا لكن عمرا

Undov yuklamasi (nido) dan keyin لا bilan atf qilinadi. Misol:

يا زيد لا عمرو (Ey Zayd, Amr emas)

Buyruqdan keyin kelishiga misol:

اضرب زيدا لا عمرا (Zaydni ur, Amrni emas)

Musbat gapdan keyin kelishiga misol:

”عمرو لا زيد جاء” (Zayd keldi, Amr emas).

Inkordan keyin لا bilan atf qilinmaydi: ”عمرو لا زيد جاء ما” (Zayd kelmadi, Amr emas) deyilmaydi. Musbat gapda لكن dan keyin لا bilan atf qilinmaydi: عمرو لكن زيد جاء (Zayd keldi, lekin Amr keldi) deyish xato hisoblanadi.



Date: 1st June-2026

Inkor jumlada "بل" o'zidan oldingisining hukmini tasdiqlaydigan hamda o'zidan keyingisi uchun qarshisidagi hukmni tasdiqlaydigan bo'lib qoladi. Masalan "بل زيد قام ما" (Zayd turmadi, balki Amr turdi) va "عمر بل زيدا تضرب ولا" (Zaydni urma, balki Amrni ur) misollarida oldin o'tgan inkor va qaytariqni ham tasdiqladi. Turish ish-harakatini Amrga, urish harakatini ham unga nisbat berdi.

Musbat xabarda va amr(buyruq)da u (بل) bilan atf qilinadi. Avvalgisi go'yo aytilmagandek bo'lishi uchun o'sha jumlaning tuzatishni ifodalaydi va hukmni ikkinchisiga o'tkazadi.

"واضرب زيدا بل عمرا" (Zaydni, balki Amrni ur) misollari kabi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida arab tilidagi atf hodisasi tavobe'lar turkumida o'zining muhim o'rniga ega ekanligi aniqlandi. Atf bog'lovchilari gapdagi bo'laklar, so'z birikmalari va gaplar o'rtasida grammatik bog'lanishni hosil qilish bilan bir qatorda, ular orasidagi semantik munosabatlarni ham aks ettirishi ma'lum bo'ldi. Izlanish jarayonida atfning ikki asosiy turi atf al-bayon va atf an-nasaqning sintaktik xususiyatlari o'rganildi. Atf al-bayonning asosiy vazifasi oldingi so'z ma'nosini aniqlashtirish va ochiqlash ekanligi yuzaga chiqdi. Shunga ko'ra u sifat va badalga ayrim jihatlarda o'xshashligi, ammo ulardan ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi ayon bo'ldi. Klassik manbalarda keltirilgan misollardan ayrim holatlarda tobe so'z badal o'rnini bosa olmasligi va faqatgina atf al-bayon bo'lib kelishi mumkinligi aniqlandi.

Atf an-nasaq esa maxsus bog'lovchilar yordamida ma'tuf va ma'tuf alayh o'rtasidagi grammatik munosabatni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Tahlil natijasida atf bog'lovchilari الفاء, حتى, أم, أو, بل, لا, لكن, و, ثم harflarining har biri o'ziga xos sintaktik hamda semantik vazifalarni bajarib kelishi ma'lum bo'ldi. Misol uchun و harfi jamlash ma'nosini, و harflari tartib ma'nosini, و esa tanlash hamda aniqlashtirish ma'nolarini ifodalab kelishi misollar orqali atroflicha yoritildi.

O'rta asrning mashhur Basra va Kufa grammatik maktab vakillari fikrlarini qiyosiy o'rganish jarayonida atf hodisasining ba'zi masalalarida turli nazariy qarashlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, و harfining tartib ma'nosini anglatishi masalasi borasidagi ikki maktab vakillari orasidagi ilmiy bahslar o'rganildi.

Klassik manbalar tahlili natijasida atf bog'lovchilarining qo'llanishi nutqning aniqligi, ravonligi hamda mantiqiy izchilligini ta'minlashda muhim omillardan biri ekanligi amaliy tasdiqini topdi. Shuningdek, atf bog'lovchilari to'g'ri tanlanishi gap ma'nosini aniq ifodalash imkonini berishi ayon bo'ldi. Tadqiqot jarayonida Ibn Molikning "Alfiya" asari va unga yozilgan sharhlarda atf masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi hamda ushbu manbalarda atfning nazariy asoslari bilan bir qatorda uning amaliy ishlatilishiga oid qoidalar batafsil yoritilganligi kuzatildi.

Mazkur natijalar arab tili sintaktik tizimida atfning grammatik va semantik jihatdan muhim bog'lovchi vosita ekanligini ilmiy isbotidir.

MUHOKAMA



Date: 1st June-2026



Ushbu tadqiqot natijalari arab tilidagi atf hodisasining sintaktik tizimdagi o'rni qay darajada ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Atf bog'lovchilari yordamida gap bo'laklari orasidagi grammatik bog'lanish sodir bo'lishi bilan birga nutqning go'zalligi hamda ravonligi ta'minlanadi. Shu tufayli atf arab tilidagi tobe bog'lanish hodisasining ajralmas bo'lagi sifatida e'tirof etiladi.

Atf al-bayonning izohlash va aniqlik kiritish vazifasi semantik jihatdan ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi. Atf an-nasaq esa turli bog'lovchi harflar yordamida gap qurilishidagi birliklar o'rtasida turli ma'no munosabatlarini hosil qiladi. Shu orqali gapda qo'shish, ketma-ketlik, zidlik, tanlash va boshqa semantik ma'nolar ifodalanishi uchun zamin hozirlanadi.

Basra va Kufa maktab vakillari qarashlarining qiyosiy tahlili arab tilshunosligida atf masalasining chuqur o'rganilgan mavzulardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayrim nuqtalardagi tafovutga qaramay, har ikki maktab olimlari atfning gap tuzilishidagi muhim o'rnini e'tirof etadilar. Shu orqali atf hodisasining arab tili grammatikasidagi barqaror va muhim sintaktik hodisa ekanligi o'z tasdig'ini topadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, atf tobe bog'lanishi arab tili nahv ilmidagi e'robiiy izchilikni ta'minlovchi hodisalardan biridir. U shunchaki so'zlarni bog'lovchi vosita emas, balki gapdagi voqealar zanjirini mantiqiy va vaqt o'lchovlari bo'yicha tartibga soluvchi murakkab sintaktik tizimdir.

Atf al-bayon va badal hodisalari orasidagi nozik farqlar arab tilshunosligining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi. Muayyan gap bo'laklarida (undalma va maxsus izofali birikmalarda) tobe bo'lakning faqat atf al-bayon bo'lib kelishi klassik nahv ilmining mantiqqa qay darajada suyanishining ilmiy-amaliy tasdig'i hisoblanadi.

Atf an-nasaq hodisasidagi bog'lovchilar nutqning jozibasi, ravonligi hamda muloqot xavfsizligini ta'minlaydi. Atf bog'lovchilarining har biri muayyan mantiqiy maqsadga xizmat qiladi. Shu orqali so'zning ma'nosi va ta'sir kuchi ortadi.

Klassik arab tilshunosligi manbalarida atf hodisasining bu qadar chuqur tahlil qilinishi arab tilining sintaktik imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etadi. Ushbu qoidalarni o'rganish, mantiqiy zanjirini topish hamda zamonaviy tilshunoslik orqali qayta baholash nafaqat tilshunoslik, balki manbashunoslik sohalaridagi katta yutuqlarga sabab bo'lmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Ibn Aqil. Sharhu ibn Aqil ala alfiyati ibn Malik. Juz' as-salis - Bayrut: Muassasat ar-risala, 2022. - 304 b.
3. Ibn Hishom. Sharhu qotr an-nada va ball as-soda. - Qohira: Dar ibn al-Javziy, 2018. - 429 b.

Date: 1st June-2026

4. Shayx Mustafo al-G‘alayiniy. Jami’ ad-durus al-arobiyya. - Bayrut: Muassasat ar-risala nashirun, 2020. - 804 b.
5. Кузьмин С.А. Учебник арабского языка. - Москва: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - 383 с.
6. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно- историческом освещении. - Москва: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - 592 с.
7. An-Naim. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at Toshkent: «Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me’rosi nashriyoti », 2003. 654 b.
8. <https://www.natlib.uz>
9. <https://ziyonet.uz>
10. www.stat.uz
11. www.lex.uz
12. arabic.uz

